

ALEKSANDR FAYNBERG QALBLARDA MANGU YASHAYDI

Ibodullayev San'atbek

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Rus filologiyasi fakultetining 3- bosqich talabasi
E-mail: @madrimovsanatbek08@gmail.com

ANNOTATSIYA

O'zbek yozuvchilari azaldan butun dunyoning qalbidan joy olib kelgan. Jahonda o'z o'rniga ega shoirlari juda ham ko'p. Shular qatorida Aleksandr Faynbergni ham bunga ancha hissasi qo'shilgan. O'zining ijodi va tarjimalari bilan o'zbek, rus va ko'plab xalqlarning mehrini qozonishga ulguragan. Ijodida barqarorlik uncha kuzatilmagan bo'lsada, yozib ketgan asarlari shoirning chuqur ma'naviyatga ega ekanligidan darak beradi. Faynberg o'z tarjimalari bilan o'zbek millatining adabiyoti o'ziga tortuvchi ohangrabosi bilan ajralib turishini butun dunyoga isbotlab qo'ydi. Bizning shoirlarimiz qilgan ishini yillar davomida yozishsa ham, tugatib bo'lmaydigan darajada adabiyotning cho'qqisiga chiqarib qo'ydi desak ham bo'ladi. Bu bizning shoirlarimiz yetuk ma'naviyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: *ikki millat shoiri, qalblarda mangu, hamjihatlik, adabiyot ixlosmandlari*

ABSTRACT

Uzbek writers have always been in the hearts of the whole world. There are many poets who have their place in the world. Among them, Alexander Feinberg contributed a lot to this. With his works and translations, he managed to win the love of Uzbeks, Russians and many other peoples. Although stability was not observed in his work, his written works indicate that the poet has deep meaning. With his translations, Feinberg proved to the whole world that the literature of the Uzbek nation is distinguished by its attractive tone. Even if our poets have been writing for years, we can say that they have reached the pinnacle of literature. This proves that our poets have a mature character.

Key words: *poet of two nations, forever in hearts, solidarity, lovers of literature*

АННОТАЦИЯ

Узбекские писатели всегда были в сердцах всего мира. Есть много поэтов, у которых есть свое место в мире. Среди них немало способствовал этому Александр Файнберг. Своими произведениями и переводами он сумел завоевать любовь узбеков, русских и многих других народов. Хотя в его творчестве не наблюдалось стабильности, его письменные произведения свидетельствуют о наличии у поэта глубокого смысла. Своими переводами Фейнберг доказал всему миру, что литература узбекского народа отличается притягательным

тоном. Даже если наши поэты пишут годами, можно сказать, что они достигли вершины литературы. Это доказывает, что у наших поэтов зрелый характер.

Ключевые слова: поэт двух народов, навсегда в сердцах, солидарность, любители литературы.

KIRISH

“Adabiyot - xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo’l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o’rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq butun, insoniyat bezavol yashaydi”

Shavkat Mirziyoyev

Darhaqiqat bugungi kunda o‘qilayotgan asarlar, insonlar qalbining tub-tubigacha kirib boradi. Adabiyot ixlosmandlari yildan yilga ko‘paymoqda. Barcha xalqlardan farqli o‘laroq, bizning adabiyotimiz o‘zining jozibasi bilan ajralib turadi. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning asarlari nafaqat Osiyo, Yevropa butun dunyoga yoyilgan. Bu asarlar hozirgi kungacha o‘qigan odamni lol qoldiradi. O‘zbek shoirlari doimo butun dunyoga tanilgan va hayratda qoldirgan. Shunday shoirlardan biri, qalbi o‘zbek bo‘lgan, qolaversa rus va o‘zbek xalqining farzandi Aleksandr Arkadevich Faynberg. Faynberg o‘zining iqtidorligi bilan, hamda o‘zbek va rus tillarida ijod qilgani bilan o‘zbek va rus xalqining mehrini qozondi. Barcha adabiyot ixlosmandlarining qalbidan joy egalladi. Uning hayotiga nazar tashlasak, Faynberg 1939- yil 2- noyabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Bolaligi boshqa bolalar singari ko‘chada o‘tgan. Shoir yetti yillik maktabni tugatib, Toshkent topografik texnikumida o‘qishga kiradi. Anvar Toshkent davlat universitetining sirtqi filologiya fakultetida jurnalistika bo‘limini tugatgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Aleksandr Faynberg buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy bobomizning va bir qancha o‘zbek shoirlarining asarlarini rus tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimalar, oddiy tarjimalar bo‘lib qolmay ikki davlatning o‘zbek va rus xalqining bilimini boyitish va o‘rtadagi munosabatlarni rivojlanishiga ham hissa qo‘shdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir bir qancha vaqt Yozuvchilar uyushmasida ishlagan. Uning qalamiga mansub „Etyud“ (1967), „Soniya“ (1969), „She’rlar“ (1977), „Olis

ko‘priklar“ (1978). „Ijobat“ (1982) to‘plamlari nashrdan chiqqan. Faynber ssenariylari asosida bir qancha multfilmlar ham ishlangan.

Aleksandr Faynbergning nodir asarlari-yu tarjimalari yuksak baholandi. Shoir xalqimizning ma’naviyatini yuksaltirishda va boshqa davlatlar bilan hamjihatlikni mustahkamlagini uchun „O‘zbekiston respublikasi xalq shoiri“ unvoni bilan taqdirlandi.

Biz yashayotgan zaminda shunday shoirlar borki, ular yillar davomida o‘zining yuqori darajadagi cho‘qqisini saqlab kelmaydi, lekin ular shunday asarlar yozadiki, bu asarlar yillar davomida har bir kitobxonning qalbidan joy egallaydi, shunchaki o‘zi uchun cho‘qqini yaratib oladi. Doimo qalblarda mangu yashovchi Aleksandr Faynberg.

REFERENCES

1. Малыгина Г. Поэтический прииск Александра Файнберга. – Т., 2014.
2. Файнберг А. Ишқ дегани бир қарашда туюлар осон... Шеърлар//Алекандр Файнберг. – Т.: Ижод нашр, 2021.
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>